Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







GLOBALLASHUV VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TA'SIRIDA YOSHLAR TAOMLANISH MADANIYATINING TRANSFORMATSIYASI

Yodgorova Sarvinoz Musalimxon qizi
Mirzo Ulig'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universieti .Etnografiya,etnologiya va antropologiya yo'nalishi
yodgorovasarvinoz9@gmail.com

Kirish. Bugungi kunda taomlanish tizimi nafaqat insonning biologik ehtiyojini qondirish vositasi, balki chuqur ijtimoiy-madaniy fenomen va etnik identifikatsiya belgisi hisoblanadi. Axborotlashgan jamiyat va globallashuv ta'sirida yoshlarning ovqatlanish xulq-atvori, ayniqsa ularning an'anaviy va raqamli muhitdagi qadriyatlari jiddiy transformatsiyaga yuz tutmoqda. Farg'ona vodiysi yoshlari misolida bu jarayon shahar va qishloq hududlari kesimida turlicha namoyon bo'lib, milliy o'zlikni saqlab qolish va zamonaviy ijtimoiy trendlarga moslashish o'rtasidagi murakkab mexanizmlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu jarayonlarni sotsiologik va etnografik yondashuvlar asosida tadqiq etish bugungi ijtimoiy fanlarning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Tadqiqot maqsadi. Globallashuv, urbanizatsiya va raqamli texnologiyalar (internet, ijtimoiy tarmoqlar) omillarining Farg'ona vodiysi yoshlari taomlanish madaniyatiga ko'rsatayotgan ta'sirini tahlil qilish hamda ularning kundalik iste'mol xulq-atvorida shakllanayotgan yangi "gibrid model" xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Metodologiya va ob'yekt. Tadqiqot obyekti sifatida Farg'ona vodiysining yirik shaharlari (Farg'ona, Namangan) hamda qishloq hududlari (Oltiariq, Quva) yoshlari tanlab olindi. Tadqiqotda P. Burdye (shaxs maqomini belgilash vositasi), I. Pavlovskiy (taom – iqlim va hudud kodi), J. Maklin (tabiiylikka intilish nazariyasi) kabi olimlarning yondashuvlari hamda empirik-sotsiologik kuzatuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning asosiy qismi va tahlil. O'tkazilgan tahlillar yoshlarning taomlanish madaniyati va tanlovlarida muhim tarkibiy o'zgarishlar yuz berayotganini ko'rsatdi: Birinchidan, globallashuv va raqamli muhit ta'sirida yoshlar orasida yangi iste'molchi tiplari shakllangan: "sifat va maqomga intiluvchilar", kontent uchun yashovchi "vizual trend izdoshlari" hamda "raqamli qulaylik tarafdorlari". Xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi "Fud-bloging", "Mukbang" va agressiv reklama ta'sirida ovqatlanish fiziologik ehtiyojdan ko'ra ijtimoiy maqom belgisi va "check-in" jarayoniga aylanmoqda. Ikkinchidan, dasturxon va mehmondo'stlik madaniyatida shahar va qishloq qutblari shakllangan. Shahar yoshlari (Farg'ona, Namangan) orasida erkin joylashuv, individual likopchalarda taomlanish, kutilmagan mehmon o'rniga kafelardagi uchrashuvlar ustuvorlik qilsa, vodiy qishloqlarida jamoaviylik, o'choq boshida xizmat qilish va hamtovoqlik qadriyatlari o'z obro'sini saqlab qolgan. Uchinchidan, globallashuvga javoban yoshlar o'rtasida "tabiiylikka qaytish" hamda virtual makonda A. Alimbayeva ta'biri bilan aytganda "gastronomik millatchilik tendensiyasi" kuchaymoqda. Yoshlar internet makonida milliy taomlarni (palov, sumalak va h.k.) o'z milliy chegaralarini va etno-madaniy mansubligini belgilovchi ramz sifatida taqdim etmoqdalar.

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







Xulosa. Farg‘ona vodiysi yoshlari taomlanish madaniyatida milliy o‘zlik inqirozga uchramagan, aksincha u an’ana va zamonaviylik uyg‘unlashgan **“gibrid model”** asosida rivojlanmoqda. Bayramlar (Navro‘z, Hayit) va oilaviy marosimlar globallashuvning unifikatsiya to‘lqiniga qarshi ijtimoiy himoya qalqoni vazifasini o‘tab, yoshlarni o‘z etnik ildizlariga qaytaruvchi langar bo‘lib xizmat qilmoqda. Talaba-yoshlar shunchaki passiv iste’molchi emas, balki global va milliy qadriyatlar orasida o‘zining yangi gastronomik o‘zligini mustaqil shakllantirayotgan faol ijtimoiy qatlamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bourdieu P. Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste. – London: Routledge, 1984. – P. 176.
2. Alymbaeva, A. Nations of Plov and Beshbarmak: Central Asian Food and National Identity on the Internet. – Halle: Max Planck Institute for Social Anthropology, 2017. – P. 1.
3. Pavlovskiy I. V. Eda kak atribut kulturno-prostranstvennix koordinat. – M.: MGU, 2015. – S. 348–349.
4. Xaqnazarov X.D. O'zbekiston yoshlarining kundalik turmush tarzi. (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – B. 24.
5. McLean, J. E. The Taste of Place and the Nature of Trust: Natural and Heritage Foods in Post-Socialist Kazakhstan. – University of California, 2017.